



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




SURXONDARYO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“O‘QUVCHILARDA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH VA RAQAMLI DUNYONI O‘RGANISHLARINI TASHKIL ETISHNING ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

(2024-yil, 15-oktyabr)

TERMIZ-2024



6. M.Abdullayeva. Adabiy ta’limda innovatsion yondashuv (Matn) : o‘quv qo‘llanma /- Toshkent : Bookmany print, 2024. – 222 b.

7. Baubekova G. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi O‘rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g‘oyalari. Ped. fan. doktori... diss. – T., 2000.

8. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma’naviyat. – T.: Ma’naviyat, 2015.

“SUHBAT” METODI VA UNING ADABIY ASARLARDAN BILIM OLISHDAGI AFZALLIKLARI

Axmadaliyeva Mahliyo Sherali qizi

CHDPU. Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘rta umumta’lim maktablarida Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanini o‘rganish jarayonida “Suhbat”, “Munozara” va “Kichik tadqiqot” metodlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning adabiy saviyasini oshirish usullari tahlil qilingan. Mazkur usullar asarning mazmun-mohiyatini chuqur anglashga, fikrlar almashinuvi orqali tahliliy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

Suhbat metodi fanga qadimdan ma’lum, hatto undan o‘z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta’lim jarayonida ko‘p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o‘quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o‘qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat faoliyatini endigina boshlagan o‘qituvchi uchun murakkab ta’lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta’minlash ko‘p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O‘qituvchi oddiy savollar berishi, o‘quvchilarga ular yuzasidan batafsil o‘ylash uchun vaqt ajratishi, o‘quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o‘rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo‘l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o‘quvchilarga oldindan ma’lum bo‘lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o‘quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladi. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat ko‘proq o‘quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Mazmuniga ko‘ra suhbat turli ko‘rinishlarda tashkil etiladi.⁵²

⁵² Adabiyot o‘qitish metodikasi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. - Toshkent : Shafoat Nur Fayz, 2020.- 87-96 b.

1. Kirish suhbat o‘quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad hal etilishi zarur bo‘lgan ishlar mohiyatining o‘quvchilar tomonidan anglab yetilganligini tekshirib ko‘rishdan iborat. Bunday suhbatlar o‘quvchilarning o‘quv salohiyatini aniqlash, loyihalashtirish ishlarini tashkil etish hamda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga kirishish oldidan uyushtiriladi.

2. Yakuniy suhbat o‘quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

3. Qisqa bayonli suhbat – o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasi hamda ularning yangi o‘quv metodikasini o‘zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun tajribali o‘qituvchilar tomonidan dars avvalida yohud o‘rganilgan materialni mustahkamlash uchun dars so‘nggida qo‘llaniladi.

4. Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo‘naltiriladi.

Bunda savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, natijada ularga “ha” yoki “yo‘q” tarzidagi javoblarni olish emas, aksincha, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta‘minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga erishish imkoniyati yaratilsin. Tushuntirish o‘quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o‘rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o‘quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko‘zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi.

Ilmiy ma‘ruza mazmunini murakab tizimlar, hodisalar, ob‘yektlar, jarayonlarning sababli-oqibatli bog‘lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma‘ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo‘llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma‘ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqida o‘quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o‘rgata boradi.

Suhbat metodida bilim berish ustuvorlik qilmaydi. Balki o‘quvchilarda olingan bilimlar, o‘zlashtirilgan fazilatlarini mustahkamlash, munosabat bildirish, tuyg‘ularni so‘z bilan ifodalash, uni asoslash, o‘z fikrida tura bilish xususiyatlari tarbiyalanadi. O‘qituvchidan birinchi savoldan keyin o‘quvchilar kayfiyatini ilg‘ab olish, savol tushunarli bo‘lganini his qilgan holda suhbatni yangiyangi yo‘nalishlarga burish talab qilinadi. Suhbat metodi asosida tashkil qilingan darsning ichki tartibi shu tariqa yaratiladi. Suhbatni muvaffaqiyatli tashkil etishning shartlaridan biri –

o‘quvchilarning javoblariga e‘tibor va hurmat bilan yondashish. Javob berayotgan o‘quvchining fikrlari ba‘zan chalkashib ketishi yoki noaniq bo‘lishi tabiiy.

O‘qituvchining vazifasi uni butun sinfga tushunarli qilib aytib berish emas.

Bu adabiy ta'lim metodikasida mutlaqo noto'g'ri yo'l hisoblanadi. O'quvchi aytmoqchi bo'lgan fikrini qiynalib, izlanib, munosib so'zlarni topib, o'zi ifodalashi kerak. Uni boshidan shunga o'rgatish lozim.

O'quvchining fikrini aytishga o'rinsiz ko'maklashish uni o'ylamaslikka o'rgatib qo'yadi. Agar yordam berish kerak bo'lsa, qo'shimcha savollar bilan o'quvchining o'z fikrini aniqroq ifodalashiga ko'maklashish mumkin. Suhbat jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari nafaqat savolning to'g'ri qo'yilishi, balki o'qituvchining har xil xarakterdagi javoblar orasida o'zini yo'qotmay suhbatni boshqara bilishiga ham bog'liq. Yaxshi tashkil qilingan suhbatlarda o'qituvchi-o'quvchilar fikr va qarashlari bilan hisoblashadigan teng huquqli suhbatdoshlarga aylanadi. O'qituvchi o'quvchi javoblaridagi silliqlikni birinchi o'ringa ko'tarmasligi kerak. O'qituvchi o'quvchi javoblarini muntazam ravishda tuzatib, to'ldirib borishi ham noto'g'ri. Albatta, o'quvchining xulosasi o'qituvchining fikridek to'kis bo'lm aydi. U to'm toq, jo'n . jaydari, tarqoq bo'lsa ham adabiy ta'lim uchun olimnikidan qadrliroq, o'qituvchinikidan qimmatliroq. Chunki u hech kimni - muallifni ham, muallimni ham takrorlayotgani yo'q. Bu o'quvchining o'z mustaqil fikri, o'z xulosasi. O'quvchining fikr ifodalashida mantiq, madaniyat va bilimni ta'minlash, boshqalarning fikriga munosabatda aytganlari uchun javob bera olish hissini tarbiyalash o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. Suhbat bu ovoz chiqarib mulohaza yuritish, bir savol atrofida birgalikda o'ylashdir. Asar ustida ishlash jarayonida bo'ladigan suhbatlar nafaqat ovoz chiqarib fikrlash, balki ovoz chiqarib his etish ham. O'quvchilar hamisha tuyg'ularini so'z vositasida ochiq ifodalayvermaydilar. Asl tuyg'ularning tabiati shunaqa, ularni hamisha ham so'zga ko'chirib boim aydi. Tortishuvlar uchun vaziyat yaratish suhbat jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlashini faollashtirishning muhim yo'llaridan biridir. Suhbat jarayonida o'qituvchining diqqati faqat bir nechta o'quvchiga qaratilib qolsa, jamoa suhbatlari buziladi. Qolgan o'quvchilar tezgina tinglovchilik mavqeiga o'tib oladilar. Sinfda «suhbatda faqat alochi o'quvchilar qatnashadi» degan qarash shakllanib qoladi.

Chinakam suhbat o'qituvchi savol berib, birinchi bo'lib javob bergan o'quvchining fikri bilan chegaralanib qolmay, boshqa o'quvchilarning mulohazalari bilan ham qiziqish, barcha o'quvchilarning fikrlarini eshitib bo'lgachgina javoblar sifatini baholash bo'lgan joyda amalga oshadi. Suhbatlarda o'quvchilar o'zlarini teng huquqli suhbatdoshlar darajasida his qilgandagina maqsadga erishiladi. Suhbatdagi tenglik, shu bilan birga undagi tabiiylik, samimiylik, erkinlikni o'qituvchi tashkil etadi. Sinfga tashlangan umumiy savol ba'zan ayrim yo'naltiruvchi qo'shimcha savollarni ham taqozo etadi. O'qituvchi savol berayotganda ovoz ohangining tovlanishi ham suhbat samaradorligini ta'minlashga ko'maklashadi. Savolning berilish ohangi ba'zan o'quvchiga javobning yo'nalishini

belgilashga ko'maklashishi mumkin. Suhbatlar o'qituvchining qiziqarli luqmalari, munosabatlari bilan jonli chiqadi. O'qituvchi o'zining noo'rin savollari va luqmalari bilan o'quvchilarda tuyg'ular shakllanishiga halaqit berib qo'yishi mumkinligini ham unutmagani ma'qul. U baland, hukmron ovozda gapirmasligi, hatto, eng jo'n, qashshoq fikrlar aytilganda ham kulmasligi, o'quvchilardan faqat to'g'ri fikrlashni talab qilmasligi kerak. Suhbat davomida shunday lahzalar bo'ladiki, o'qituvchining sukuti barcha xususiyatlari bilan savolga, luqмага, bazan esa xulosaga teng bo'ladi. Shu o'rinda marhum metodist olim Ro'zmon Keldiyorovning o'qituvchi shaxsiga qo'ygan «Ehtiyot bo'ling, qalb bor!» degan da'vatini qo'llash juda o'rinli bo'ladi. Suhbatning yakunlangani savolning kun tartibidan tushib qolishi degani emas. Aksincha, o'qituvchi tomonidan yaxshi tashkil qilingan suhbatning yakunlanishi sinfda muhokama qilinadigan yangi-yangi savollarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Suhbat o'zining tabiiy kuchi, samimiy insoniy muloqotga asoslanganligi bilan qadimiy metodlardan sanaladi. Suhbat metodini qo'llash o'quvchi tafakkuri vabilim olishdagi mustaqilligining nisbatan baland darajasini ta'minlashi tayin. Mazkur metodda o'qituvchining faoliyati o'zlashtirilgan axborotlarni yodga soladigan savollar qo'yish, tegishli topshiriqlar berish, qiziqarli savollar tuzish, bilimlarni yangi vaziyatga muvofiqlashtirish va qayta ishlashga yo'llaydigan savollar berish, xulosa chiqarishga undash, chiqarilgan xulosalarni asoslashni talab qilishdan iborat. O'quvchining faoliyati esa vaziyatni tahlil etish, o'zlashtirilgan axborotlarni yodga soladigan savollarni qayd etish, ularga javob berish, javob berish, yarim mustaqil va mustaqil xulosalar chiqarish. fikrlarini asoslashdan iborat bo'ladi. Suhbat metodi o'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan dialogik hamkorligini nazarda tutadi. Bu metodning mohiyati o'qituvchi tomonidan o'quv materialini qiziqarli tarzdabayon etish, o'quvchilarni javob topish yo'llarini izlashga, bilim va ma'naviy sifatlar, xulosa, qonuniyat va qoidalarning bolalar tomonidan qayta kashf etilishiga jalb qilishdan iboratdir.⁵³

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xondamir QODIRIY. “Mehrobdan chayon”/roman/ Abadiy barhayot asarlar” turkumi/ Nashrga tayyorlovchi:
–T.: “Navro‘z”,2019 .- 288 b.
2. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh.O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi [Matn] : darslik / – Toshkent: Shafokat nur fayz, 2023,-336 b.
3. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi [Matn] : o‘quv qo'llanma / - Toshkent : Shafokat Nur Fayz, 2020.- 110-132 b.
4. Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Adabiyot o‘qitish metodikasi.(An‘anaviylikdan zamonaviylikka)

⁵³ Adabiyot o'qitish metodikasi [Matn] : o'quv qo'llanma / Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. - Toshkent : Shafokat Nur Fayz, 2020.- 87-96 b.

5. U.N.XODJAMQULOV, SH.I.BOTIROVA. Adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasi. –T.:”BOOK TRADE 2022” Nashriyoti.2022.-172 bet.
6. M.Abdullayeva. Adabiy ta’limda innovatsion yondashuv (Matn) : o‘quv qo'llanma /- Toshkent : Bookmany print, 2024. – 222 b.
7. Baubekova G. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi O‘rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g‘oyalari. Ped. fan. doktori... diss. – T., 2000.
8. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma’naviyat. – T.: Ma’naviyat, 2015.

buzilishlari: tasniflash va bartaraf etish usullari.....	
Z.A.Narimbetova. Проблемная ситуация как основной элемент проблемного обучения.....	824
N.Y.Raximova. PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro baholash dasturi haqida mulohazalar.....	828
Z.Q.Arziqulov. Optika bo‘limini o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalari.....	831
F. B.Xudayqulova. Ta'limning yangi modeli: ta'lim erkinligi orqali shaxsni rivojlantirish.....	835
F. B.Xudayqulova, J.J.Iskandarova. PISA tadqiqoti asosida o‘qish savodxonligi darajalarining turlari, test tarkibi va baholash mezonlari.....	838
U.T.Abdullayeva. TIMSS, PISA natijalari asosida talabalarning funksional savodliligini tashkillash bo'yicha asosiy yo'nalishlar.....	841
M.Sh.Axmadaliyeva. Romanning o‘quvchilarning axloqiy va estetik dunyoqarashiga ta’siri.....	848
M.Sh.Axmadaliyeva. “Suhbat” metodi va uning adabiy asarlardan bilim olishdagi afzalliklari.....	852